

“ANORCHILIKNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI” MAVZUSIDA DAVRA SUHBATI METODINI QO‘LLASHNING AFZALLIK TOMONLARI

G‘oziyev Umrzoq Lapasovich, G‘oibova Sevara Ayup qizi

Guliston Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda interfaol metodlardan foydanishning ustuvor jihatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, mavzularni o‘tishda “Davra suhbatlari” metodining ahamiyati va ustun jihatlari haqida bilimlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “Davra suhbatlari” metodi, xalq xo‘jaligi, farmatsevtika, yengil sanoat, oziq-ovqat, parfyumeriya, javob varaqasi, konvertlar.


Bugungi kunda ta’lim tizimida, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda turli metodlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa qishloq xo‘jaligi sohasiga oid fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llash orqali talabalarning o‘zlashtirish darajasini orttirishga erishish mumkin.

Ma’lumki, anorchilik sohasi bugungi kunda eng katta e’tibor qaratilayotgan qishloq xo‘jaligi sohalaridan biri hisoblanadi. Anorning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati benihoya katta. Oziq-ovqat sanoatida, yengil sanoatda, tibbiyotda, farmatsevtikada va parfyumeriyada ham anorchilikdan keng miqyosda foydalanilmoqda. Shuning uchun ham bu mavzuning yoritilishi pedagoglardan katta ma’suliyat talab qiladi. Bu mavzu talabalar o‘rtasida katta munozaralarga sabab bo‘ladi.

Ta’lim metodining samaradorligini oshirish uchun dars davomida talabaning o‘z mehnati, mustaqil harakati va izlanishlarini hisobga olish va to‘g‘ri yo‘naltirish zarur bo‘ladi. Buning uchun “Davra suhbatlari” metodidan foydalaniladi. Bu metodni quyidagicha qo‘llash mumkin.

“Davra suhbatlari” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib

boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbatı ” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir- biri bilan “ko‘z aloqasi” ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi “Anorchilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati” mavzusini boshlab beradi va talabalardan ushbu mavzu bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. Gapirayotgan talabani hamma diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikrlar tinglab bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalar mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilar:

1-talabalar

2-aylana stol

Davra suhbatı usulining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Anorchilikning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati mavzusi e‘lon qilinadi.

2. O‘qituvchi talabalarni tartib bilan tanishtiradi.

3. Har bir talabaga bittadan konvert va javob yozish uchun guruhdagi talabalar soni har bir talabaga taqsimlanadi va har bir javob yozish uchun ajratilgan vaqt belgilanadi. Talaba o‘z ismini konvertga va “Javoblar varaqlari”ga yozadi.

4. Talaba mavzu bo‘yicha o‘z savolini konvertga yozadi.

Masalan: Anorchilikdan qaysi sohalarda keng foydalaniladi?

5. So‘ngra “Javoblar varag‘i”ga o‘z javobini yozib, konvertga soladi.

6. Konvertga savol yozgan talaba konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi o‘quvchiga uzatadi.

7. Konvertni olgan talaba konvertdagi savolga javobni “Javoblar varaqlari” dan biriga yozib, konvertga solib yonidagi talabaga uzatadi.

8. Konvert davra stoli atrofida aylanadi va savolni yozgan talabaga qaytadi. Savolni yozgan talaba konvertdagi “Javoblar varaqlari” ni baholaydi.

9. Barcha konvertlar yig‘iladi va tahlil qilinadi.

Bu metod orqali o‘quvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘z bilimlarini qisqa va aniq bayon eta oladilar. Bundan tashqari, bu usul muayyan mavzu bo‘yicha talabalarni baholash imkonini beradi. Bunda o‘quvchilar o‘z savollariga guruhdagi boshqa o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni, o‘qituvchi esa o‘quvchilarni xolisona baholashi mumkin.

“Davra suhbat” usulining afzalliklari:

- o‘tgan materialni eslab qolishga yordam beradi;
- barcha talabalar ishtirok etadi;
- Har bir talaba o‘zini baholash uchun mas’uliyatni his qiladi;
- Erkin fikr bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, bu kabi metodlarning barchasi talabalar bilim darajasining oshishi va dars jarayonlarining qiziqarli tashkil etilishida katta ahamiyatga ega. Talabalar qanchalik darsda faol bo‘lishsa ta’lim sifati ham shunchalik yaxshilanib boradi. Har bir dars tashkil etilishida shu kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitishda ilg‘or xorijiy tajribalar” moduli bo‘yicha O‘quv- uslubiy majmua. Toshkent 2017.
2. “Anor yetishtirish sirlari” Isroil Ne‘matov.
3. Agronet.uz “Anor bo‘yicha tavsiyalar ”